

UDK: 37.013:2-1:378.147

DINSHUNOSLIK FANLARINI O'QITISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20346891>

Madaminova Nargiza Zuxriddinovna

*Fan va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri,
p.f.b.f.d., (PhD), dotsent*

Annotatsiya

Mazkur maqolada dinshunoslik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik omillari tahlil qilingan. Unda dinshunoslik ta'limining zamonaviy oliy ta'lim tizimidagi o'rni, talabalarda diniy-ma'rifiy dunyoqarash, tolerantlik, tahliliy fikrlash, dalillash madaniyati va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar

dinshunoslik, tanqidiy tafakkur, pedagogik omil, oliy ta'lim, tolerantlik, diniy-ma'rifiy dunyoqarash, interfaol metod, qiyosiy tahlil, refleksiya, muammoli ta'lim.

Introduction. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarning nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarini, balki mustaqil fikrlash, ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish, turli qarashlarga nisbatan xolis munosabat bildirish va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, dinshunoslik fanlarini o'qitishda bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki din insoniyat tarixida ma'naviyat, axloq, madaniyat, qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar va dunyoqarash shakllanishida muhim omillardan biri bo'lib kelgan.

Dinshunoslik fanlari talabalarga dinning mohiyati, tarixiy taraqqiyoti, diniy ta'limotlar, konfessiyalar, diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi, diniy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o'rni haqida ilmiy bilim beradi. Biroq mazkur fanlarni o'qitish jarayonida faqat nazariy ma'lumotlarni yetkazish bilan cheklanib qolish yetarli emas. Talabalar diniy hodisalarni ilmiy manbalar asosida o'rganishi, diniy va dunyoviy qarashlar o'rtasidagi munosabatni anglay olishi, turli diniy-madaniy an'analarni qiyosiy tahlil qilishi, noto'g'ri talqinlar, stereotiplar va ekstremistik g'oyalarga tanqidiy yondasha olishi lozim. Tanqidiy tafakkur dinshunoslik ta'limida alohida ahamiyatga ega. U talabani tayyor xulosalarni yodlab olishga emas, balki dalillarni tahlil qilishga, manbalarni solishtirishga, tushunchalar mazmunini aniqlashtirishga, muammoli savollarga asosli javob topishga undaydi. John Dewey tanqidiy fikrlashni shunchaki fikr yuritish emas,

balki mavjud bilim va tajribani tekshirish, asoslash hamda oqilona xulosa chiqarish jarayoni sifatida talqin qiladi [1]. Bu yondashuv dinshunoslik fanlarini o'qitishda ham muhimdir, chunki diniy hodisalarni tushunishda tarixiylik, xolislik, dalillilik va tahliliy yondashuv zarur.

O'zbekiston sharoitida dinshunoslik fanlarini o'qitish diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va yoshlarni turli zararli g'oyalardan asrash bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-ma'naviy zarurat hamdir. Tanqidiy tafakkur rivojlangan talaba diniy axborotni ko'r-ko'rona qabul qilmaydi, uni manbasi, mazmuni, maqsadi, tarixiy sharoiti va ijtimoiy oqibatlarini bilan baholaydi. Maqolaning maqsadi - dinshunoslik fanlarini o'qitishda talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillarni aniqlash va ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Methods. Tadqiqotda nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, pedagogik kuzatish, tizimli yondashuv va ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Dinshunoslik fanlarini o'qitish jarayonida tanqidiy tafakkurni shakllantirish masalasi pedagogik jarayonning tarkibiy qismlari - maqsad, mazmun, metod, vosita, natija va baholash mezonlari asosida tahlil qilindi.

Tadqiqotda quyidagi pedagogik omillar asosiy mezon sifatida belgilandi:

Birinchi, ta'lim mazmunining ilmiy va xolis tashkil etilishi. Dinshunoslik fanlarida diniy hodisalar bir tomonlama emas, balki tarixiy, falsafiy, madaniy, huquqiy va sotsiologik nuqtayi nazardan yoritilishi lozim. Bu talabada mavzuga nisbatan keng va tahliliy yondashuvni shakllantiradi.

Ikkinchi, muammoli ta'lim usullaridan foydalanish. Muammoli savollar talabani mustaqil fikrlashga, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlashga va asosli xulosa chiqarishga undaydi. Masalan, "Diniy bag'rikenglik jamiyat barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?", "Diniy qadriyatlar va dunyoviy ta'lim o'rtasidagi uyg'unlik qanday namoyon bo'ladi?" kabi savollar tanqidiy tafakkurni faollashtiradi.

Uchinchi, interfaol metodlarning qo'llanilishi. Bahs-munozara, debat, "aqliy hujum", keys-stadi, klaster, konseptual xarita va guruhli loyiha kabi metodlar talabalarining faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu esa ularni tinglovchidan tahlilchi va ishtirokchiga aylantiradi.

To'rtinchi, manbalar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish. Dinshunoslikda tarixiy manbalar, muqaddas matnlar, ilmiy tadqiqotlar, huquqiy hujjatlar va zamonaviy tahliliy materiallar bilan ishlash muhimdir. Talaba

manbaning kelib chiqishi, muallifi, tarixiy sharoiti, maqsadi va ilmiy ishonchliligini baholashni o'rganishi kerak.

Beshinchidan, reflektiv topshiriqlar tizimi. Talaba o'z fikrini qayta ko'rib chiqishi, dastlabki qarashlarini dalillar bilan solishtirishi, xatolarini anglashi va yakuniy xulosa chiqarishi tanqidiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Oltinchidan, pedagogik muloqot muhiti. O'qituvchi auditoriyada erkin fikr bildirish, savol berish, bahslashish, turli qarashlarni hurmat qilish va dalil asosida muloqot qilish madaniyatini yaratishi zarur. Paulo Freire ta'limni bir tomonlama axborot uzatish emas, balki dialogik jarayon sifatida tushuntiradi [2]. Bu fikr dinshunoslik fanlarida ham alohida ahamiyatga ega, chunki mazkur fanlarda savol-javob, muhokama va muloqot orqali talabalarda xolis yondashuv shakllanadi.

Results. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, dinshunoslik fanlarini o'qitishda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish bir nechta pedagogik shart-sharoitlarning uyg'unligiga bog'liq. Eng avvalo, o'quv jarayonida bilim berishdan ko'ra fikrlashga yo'naltirilgan metodik tizim ustuvor bo'lishi kerak. Agar dars jarayoni faqat tayyor ma'lumotlarni bayon qilish va ularni eslab qolishga asoslangan bo'lsa, talabalarda reproduktiv tafakkur kuchayadi. Aksincha, savol, muammo, tahlil, munozara va mustaqil izlanish asosidagi darslarda tanqidiy tafakkur faol rivojlanadi.

Dinshunoslik fanlarida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning birinchi natijaviy omili - diniy hodisalarga ilmiy yondashuvning shakllanishidir. Talaba dinni faqat e'tiqodiy hodisa sifatida emas, balki tarixiy, madaniy, axloqiy va ijtimoiy institut sifatida tushuna boshlaydi. Bu esa unda keng dunyoqarash, tahliliy fikrlash va xolis baholash ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan, jahon dinlari tarixini o'rganishda talabalar diniy ta'limotlarning paydo bo'lish sabablari, ijtimoiy sharoitlari, qadriyatlar tizimi va jamiyat hayotiga ta'sirini solishtirish orqali chuqurroq xulosa chiqaradi.

Ikkinchi muhim natija - talabalarda dalillash madaniyatining shakllanishidir. Dinshunoslik fanlarini o'qitishda talaba har qanday fikrni "shunday deyilgan" yoki "shunday qabul qilingan" tarzida emas, balki manba, dalil, tarixiy kontekst va ilmiy izoh asosida asoslashga o'rganadi. Bu jarayonda o'qituvchi talabadan fikrini aniq dalil bilan tasdiqlashni talab qilishi muhimdir. Masalan, diniy bag'rikenglik mavzusida talabalar xalqaro hujjatlar, milliy qonunchilik, tarixiy tajribalar va ijtimoiy amaliyotni tahlil qilish orqali mustaqil xulosaga keladi.

Uchinchi natija - stereotip va biryoqlama qarashlarga nisbatan tanqidiy munosabatning shakllanishidir. Diniy mavzular ko'pincha turli ijtimoiy stereotiplar, noto'g'ri talqinlar yoki subyektiv qarashlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Tanqidiy tafakkur rivojlangan talaba bunday qarashlarni bevosita qabul

qilmaydi, balki ularning manbasi, maqsadi, ishonchliligi va ijtimoiy oqibatlarini tahlil qiladi. Bu jihatdan dinshunoslik ta’limi yoshlarni diniy ekstremizm, mutaassiblik va radikal g’oyalardan himoya qilishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

To’rtinchi natija – talabalarda tolerantlik va muloqot madaniyatining rivojlanishidir. Dinshunoslik fanlari turli dinlar, konfessiyalar, e’tiqodlar va dunyoqarashlar haqida bilim beradi. Bunday bilimlar tanqidiy tafakkur bilan uyg’unlashganda talaba boshqalarning qarashlarini tushunishga, farqlarni hurmat qilishga, diniy-madaniy xilma-xillikni ijtimoiy boylik sifatida qabul qilishga o’rganadi. Bu esa jamiyatda bag’rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Beshinchi natija – mustaqil ta’lim va izlanish ko’nikmalarining rivojlanishidir. Talaba darslikdagi ma’lumot bilan cheklanmay, qo’shimcha manbalarni izlaydi, ularni solishtiradi, ilmiy maqolalar, tarixiy hujjatlar, statistik ma’lumotlar va zamonaviy tahlillar asosida o’z qarashini shakllantiradi. Robert Ennis tanqidiy tafakkurni nimaga ishonish va qanday harakat qilish haqida oqilona qaror chiqarishga yo’naltirilgan reflektiv fikrlash sifatida izohlaydi [3]. Dinshunoslik ta’limida bu yondashuv talabaning diniy-ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabatini shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi jadvalni keltirish mumkin:

Pedagogik omil	Mazmuni	Kutiladigan natija
Muammoli ta’lim	Talabani savol va muammo orqali fikrlashga undash	Mustaqil tahlil va xulosa chiqarish rivojlanadi
Interfaol metodlar	Debat, keys-stadi, guruhiy muhokama, aqliy hujum	Faollik, dalillash va muloqot madaniyati shakllanadi
Manbalar bilan ishlash	Ilmiy, tarixiy, huquqiy va diniy manbalarni tahlil qilish	Axborotni xolis baholash ko’nikmasi rivojlanadi
Qiyosiy tahlil	Turli dinlar, qarashlar va talqinlarni solishtirish	Keng dunyoqarash va tolerantlik mustahkamlanadi
Reflektiv topshiriqlar	O’z fikrini qayta baholash va xatolarni tahlil qilish	Ongli, asosli va mas’uliyatli fikrlash rivojlanadi
Pedagogik dialog	O’qituvchi va talaba o’rtasidagi ochiq muloqot	Erkin fikrlash va savol berish madaniyati shakllanadi

Ushbu jadvaldan ko’rinadiki, dinshunoslik fanlarini o’qitishda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish alohida bir metod bilan emas, balki pedagogik omillarning tizimli qo’llanilishi orqali amalga oshadi.

Discussion. Dinshunoslik fanlarini o’qitishda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish masalasi o’qituvchi faoliyatining mazmuni va metodikasini qayta ko’rib chiqishni talab qiladi. Chunki mazkur fanlar mazmunan sezgir, ijtimoiy

ahamiyatli va dunyoqarashga bevosita ta'sir qiluvchi fanlar sirasiga kiradi. Shuning uchun o'qituvchi dars jarayonida diniy mavzularni xolis, ilmiy, huquqiy va tarbiyaviy nuqtayi nazardan yoritishi lozim. Pedagogik nuqtayi nazardan, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun darsda faqat ma'lumot berish emas, balki fikrlash faoliyatini tashkil etish zarur. Bunda o'qituvchi talabalarga tayyor xulosa bermasdan, ularni savol berishga, manba izlashga, dalil topishga va mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltiradi. Masalan, "Din va axloq o'rtasidagi munosabat", "Diniy bag'rikenglik va dunyoviy davlat tamoyillari", "Globallashuv sharoitida diniy qadriyatlarning o'rni" kabi mavzular muammoli savollar asosida o'qitilsa, talabalar mavzuni yuzaki emas, balki chuqur tahlil qilishga o'rganadi.

Dinshunoslik ta'limida qiyosiy tahlil metodi alohida ahamiyatga ega. Turli dinlar va diniy-falsafiy qarashlarni qiyosiy o'rganish talabaga farqli dunyoqarashlar o'rtasidagi umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Bu jarayonda talabada biryoqlama qarash emas, balki xolis ilmiy yondashuv shakllanadi. Shu bilan birga, qiyosiy tahlil diniy bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda o'qituvchining savol berish texnologiyasi muhim o'rin tutadi. Oddiy reproduktiv savollar talabadan faqat eslab qolishni talab qiladi. Tahliliy savollar esa uni fikrlashga majbur etadi. Masalan, "Islom sivilizatsiyasining ilm-fan rivojiga ta'siri qanday bo'lgan?", "Diniy qadriyatlar ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda qanday rol o'ynaydi?", "Diniy ekstremizm va haqiqiy diniy qadriyatlar o'rtasidagi farq nimada?" kabi savollar talabani mustaqil tahlilga yo'naltiradi.

Dinshunoslik darslarida manbalar bilan ishlash metodikasi ham muhim pedagogik omildir. Talaba turli manbalar - darslik, ilmiy maqola, huquqiy hujjat, tarixiy matn, statistik ma'lumot yoki zamonaviy tahliliy material bilan ishlaganda axborotni tanlash, solishtirish, ishonchliligini baholash va xulosa chiqarish ko'nikmasiga ega bo'ladi. D.F. Halpern tanqidiy tafakkurni maqsadga yo'naltirilgan, asosli va natijaga olib boruvchi fikrlash ko'nikmalari majmui sifatida ko'rsatadi [4]. Demak, manbalar bilan ishlash tanqidiy tafakkurning amaliy mexanizmlaridan biridir. Shuningdek, reflektiv topshiriqlar talabalarni o'z fikrini qayta ko'rib chiqishga o'rgatadi. Masalan, dars yakunida "Bugungi mavzu bo'yicha mening dastlabki fikrim qanday edi?", "Qaysi dalillar fikrimni o'zgartirdi?", "Men qanday xulosaga keldim?" kabi savollar asosida yozma refleksiya tashkil etilishi mumkin. Bu usul talabaning ichki fikrlash jarayonini faollashtiradi va uni mas'uliyatli xulosa chiqarishga o'rgatadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida dinshunoslik fanlarini o'qitish yoshlarning ma'naviy kamoloti, diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalanishi va turli zararli

g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini shakllantirish bilan uzviy bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, tanqidiy tafakkur dinshunoslik ta'limining asosiy natijalaridan biri bo'lishi kerak. Chunki talaba diniy axborotlarni tahlil qila olsa, u turli radikal va mutaassib qarashlarga berilmaydi, ularni ilmiy, huquqiy va axloqiy mezonlar asosida baholay oladi. O'zbekiston Respublikasi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunida vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik va fuqarolarning e'tiqod erkinligi huquqiy jihatdan mustahkamlangan [5]. Bu huquqiy asos dinshunoslik fanlarini o'qitishda talabalarga din va jamiyat munosabatlarini ilmiy-huquqiy jihatdan tushuntirish imkonini beradi. Shu bilan birga, Prezident Sh.M. Mirziyoyev asarlarida yoshlarni ma'rifat, ilm-fan va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida talqin etiladi [6].

Conclusion. Xulosa qilib aytganda, dinshunoslik fanlarini o'qitishda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish zamonaviy oliy ta'limning muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Mazkur jarayon talabalarni diniy bilimlarni oddiy yodlashdan ko'ra, diniy hodisalarni ilmiy, tarixiy, madaniy, huquqiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil qilishga o'rgatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda quyidagi pedagogik omillar muhim ahamiyatga ega: ta'lim mazmunining ilmiy va xolis tashkil etilishi, muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish, interfaol usullarni qo'llash, manbalar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish, qiyosiy tahlil, refleksiv topshiriqlar va pedagogik dialog muhitini yaratish.

Dinshunoslik darslarida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish talabalarda diniy-ma'rifiy dunyoqarash, bag'rikenglik, dalillash madaniyati, axborotni tahlil qilish, ekstremistik va mutaassib qarashlarga qarshi immunitet, mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh, ma'naviy yetuk, ijtimoiy faol va mustaqil fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, dinshunoslik fanlarini o'qitishda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish nafaqat o'quv-metodik vazifa, balki yoshlarning ilmiy dunyoqarashi, diniy bag'rikenglik madaniyati va ma'naviy-mafkuraviy barqarorligini ta'minlovchi muhim pedagogik jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co., 1910. – P. 6-13.
2. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 2005. – P. 71-86.
3. Ennis R.H. Critical Thinking. – New Jersey: Prentice Hall, 1996. – P. 1-18.

4. Halpern D.F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – New York: Psychology Press, 2014. – P. 25-42.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi Qonuni. – Toshkent, 2021. – 3-7-moddalar.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 274-286.
7. Rasulov, R. “The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth.” Академические исследования в современной науке 3, no. 48 (2024): 124-132.
8. Khaydarova M., Rasulov R. Positive and negative consequences of the globalization process //International Conference on Arts, Society & Humanities. – 2025. – T. 1. – №. 3. – C. 35-39.
9. Odilovich, Rasulov Rustambek. The importance of youth-oriented structures established in the country in the political socialization of youth Vol. 3 No. 12 (2024): International journal of european research output (IJERO).
10. Odilovich R. R. The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2024. – T. 37. – C. 32-41.
11. Odilovich R. R. Yoshlar bilan ishlash tizimida ma’naviy-mafkuraviy omillarning yoshlar ongiga ta’siri //International Journal of Scientific Research. – 2023. – T. 2. – C. 147-152.
12. Odilovich R. R. Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi jurnal 10.26739/2181-9505 [Электронный ресурс].
13. Rasulov R. O ‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta’siri //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.4. 1. – C. 169-171.
14. Tursunov O., Rasulov R. O. Zamonaviy dasturlash muhitida arifmetik amallarni avtomatlashtirish: C# WinForms asosida kalkulyator modeli //Academic Research in Modern Science, International scientific-online conference. – 2023.
15. Rasulov R. Zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarning jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarga bo ‘lgan ta’siri //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.12. – C. 176-179.
16. Rasulov R. Raqamli transformatsiya davrida siyosiy mafkuralarning kelajakdagi shakllanish imkoniyatlari //«ACTA NUUZ». – 2026. – T. 1. – №. 1.2. – C. 163-165.